



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:29-04-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 93562

Obyekt nomi «Norin tumani "Norinkapa" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Qoradaryo" daryosining PK140+80 dan PK154+08 gacha bo'lgan 608 metr masofadagi o'ng qirg'oq dambasi yemirilgan va chap qirg'oqdagi eski o'zanni loyqadan tozalash»

Buyurtmachi - Namangan viloyat hokimligining Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK

Bosh loyihachi - "SUVLOYIHA" DUK Namangan filiali

Litsenziya AL-000694 30.04.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Budget

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 83701

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022 yildagi PQ-465-sonli qarori.
- 1.2. Namangan viloyati hokimining 30.12.2022 yildagi 759-6-0-Q/22-sonli qarori.
- 1.3. Norin tumani hokimining 16.01.2023 yildagi 15-6-83-Q/23-sonli qarori.
- 1.4. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va "Norin-Sirdaryo" ITHB bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.5. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 9.01.2023 yildagi 01/05-20-sonli ARTsiz loyihalash uchun rozilik xati.
- 1.6. Namangan Hidrometeorologiya boshqarmasi gidrologiya bo'limi tomonidan berilgan 2023 yildagi gidrometeorologik ma'lumotnoma.
- 1.7. "SUVLOYIHA" DUK Farg'ona filiali geologiya bo'limi tomonidan berilgan gidrogeologik va muhandislik-geologik sharoitlar to'g'risida ma'lumot.
- 1.8. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 1.02.2023 yildagi 24903-sonli shartnoma.
- 1.9. Belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ob'ektning nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Bosh reja.
- Ko'ndalang va bo'ylama kesimlar, asosiy ishlar hajmi qaydnomalari va chizmalari.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Mustahkamlanayotgan "Qoradaryo" daryosining dambasi Norin tumani "Norinkapa" MFYda joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Yerni tuzilish relefi – tekis.

3.2. Ishchi loyihani maqsadi.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi Namangan viloyati Norin tumani "Norinkapa" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Qoradaryo" daryosining PK140+80 dan PK154+08 gacha

bo'lgan qismida PK140+80dan PK146+88 gacha eng xavfli bo'lgan 608 metr masofadagi o'ng qirg'oq dambasini yemirilgan qismini mustahkamlab, chap qirg'oqdagi "Qoradaryo"ni eski o'zanidagi loyqadan tozalab, shu xududda yashovchi tinch aholi va ekin maydonlarini mavsumiy sel-toshqinlari va boshqa turli tabiiy ofatlardan himoya qilish.

3.3. Damba o'rni tavsilotlari.

"Qoradaryo" daryosining PK140+80 dan PK146+88 gacha bo'lgan o'ng qirg'oq dambasi Norin tumani "Norinkapa" MFY hududida yashaydigan aholi va ularning ekin maydonlarini bahorgi suv toshqinlari va tabiiy ofatlardan himoya qilib kelgan. Keyingi yillarda mavsumiy suv toshqinlari natijasida daryoning chap qirg'oq dambasining ayrim joylari yuvilib, o'z mustahkamligini yo'qotgan va ayrim joylari butunlay buzilib ketgan, natijada shu hududda yashovchi aholi punktlariga va qishlok xo'jaligi ekin maydonlariga katta ziyon yetkazgan. Daryo qirg'oqlarini kengayib borishi qirg'oqdagi aholiga va ularning tomorqa ekin maydonlariga jiddiy havf solmoqda. Hozirgi kunda "Qoradaryo" daryosining kengligi 95-140 metr, o'ng qirg'oq dambasining ayrim qismlari o'pirilib, butunlay buzilib ketgan. "Qoradaryo" daryosining hozirgi kundagi suv o'tkazish qobiliyati Namangan gidrometerologiya boshqarmasi gidrologiya bo'limining daryoning oqim suvlarini o'rganish to'g'risidagi 5 yillik yozma ma'lumotiga ko'ra 500 m³/sek tashkil qiladi. Daryoda asosan yilning may va dekabr oylarida kuchli sel oqimlari yuzaga keladi, shunda daryodagi suv sathi va tartibsiz kuchli oqim, ting aholiga jiddiy xavf soladi hamda qirg'oqdagi ekin maydonlari, transport yo'llarini yuvadi. Mavsumiy suv sathining ko'tarilib-pasayib turishi oqibatida daryoning qirg'oqlari yemirilib, kuchli eroziya sababli katta-katta o'pirilishlar davom etmoqda. Natijada avval mustahkamlanishi lozim bo'lgan uchastkaning uzunligi 600 metr bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 608 metrni tashkil etmokda.

3.4. Loyihaviy tadbirlar.

Loyiha qilinayotgan dambaning uzunligi jami 608 metr, damba Namangan viloyati Norin tumani "Norinkapa" MFY xududidan joylashgan. Damabaning tosh qismining balandligi 5,65 metr. Damabaning tuproq qismining kengligi 6,0 metr. Damba tosh qismining yuqori qismini kengligi 1,5 metr, pastki tosh qismining kengligi o'rtacha 2,5 metr. Damba tosh qismining ichki qiyaligi m-1.0 tashqi qiyaligi m-1.3 ga teng. Yuqoridagi konstruktiv elementlar SANIIRI ning 1984 yilgi ko'rsatmasiga binoan olingan. Unga asosan punkt 7.3.6 ko'rsatmasiga asosan tuproq shag'al damabaning kengligi 6 metrdan kam bo'lmasligi lozim. Loyihada ushbu ko'rsatkichni 6 metr deb qabul qilingan. SANIIRI ning "Damba qiyaligini mustahkamlash turlari" 5-bo'limining (5.2b rasm) ko'rsatmasi bilan ichki qiyalik m-1.0 tashqi qiyalik ya'ni harsang tosh

qismi m-1.3 qabul qilingan. Toshning yuqori qismining qalinligi $b=1,5$ metr, balandligi zub gidravlik hisoblarga asosan $H_{\text{gur}}=5,64$ metr. Bu bilan damba ostini suv oqimi yuvib ketishini oldi olinib, loyihaviy tuproq-shag'al dambani himoyalashga erishiladi. Dambaning daryo tomondagi otkosini mustahkamlash maqsadida yirikligi $t=50-70$ sm bo'lgan tog' toshi yordamida amalga oshiriladi, ushbu ham yuqoridagi yechimlar asosida himoyalanaadi. Tog' toshining (rvaniy kamen) kattaligini SANIIRI ning 2.15 punktiga asosan eng kichigi 50 sm dan 70 sm gacha bo'lishi hamda har bir tashlashdagi toshning miqdori kamida $3-5 \text{ m}^3$ dan kam bo'lmasligini ta'minlanishi shart. "Qoradaryo" daryosida $Q=525 \text{ m}^3/\text{sek}$ bo'lganda ($K_{\text{fx}} 1,05$ bilan) harsang toshning 1 p/metruga o'rtacha qiymati $W=10-15 \text{ m}^3$ bo'lishi 2,16 punktda ko'rsatib o'tilgan. Loyihada ushbu hududda daryo qirg'og'iga 3 dona shporalar qurish ko'zda tutilib, qirg'oqqa tashlanadigan tosh miqdorini 1 p/metruga o'rtacha $W=11,3 \text{ m}^3$ qabul qilingan. Shporalar uzunligi $L=17$ metr, $h=4,6$ metr. Toshlar orasidagi 15-20% foizgacha bo'lgan g'ovak joylar daryodan olinadigan yirik shag'al bilan to'ldiriladi.

Loyihada buzilgan shag'al-tuproq dambani avvalgi sathi balandligida qayta tiklash va dambaning ichki qismi qiyaligini (otkosini) tog' toshi bilan mustahkamlash ko'zda tutilgan. Tog' toshining yuqori qismining sathi, tuproq shag'al dambaning yuqori sathi bilan tenglashtirilgan holatda, ya'ni tog' toshini banket usulida tashlash yo'li bilan bajariladi. Daryoning gidravlik parametrlari quyidagicha: suv sathi $Q_{\text{fn}} = 525 \text{ m}^3/\text{sek}$, $b_{\text{ort}} = 60-106$ metr; $i = 0.0023-0.0029$, $m=1.3$, $v=1.375-1.9$ m/cek; $n=0.08$; $h_{\text{f.suv}}=2,87-4,18$ metr; $H_{\text{gur}}=3,6-4,88$ metr (loyixaviy suv sathi H_{nap} daryoning tubiga nisbatan xisoblanadi). Yuqoridagi gidravlik hisob-kitoblar GreateProfile elektron hisoblash programmasi orqali amalga oshirildi.

Loyihada yuqoridagi tadbirlardan tashqari, daryo suv oqimini o'ng qirg'oqqa nisbatan xavfini kamaytirish maqsadida PK143+50; PK144+56; PK146+88 nuqtalariga har birining uzunligi 17 metrdan bo'lgan shporalarni qurish ko'zda tutilgan (shporaning jami uzunligi $L=17\text{m}\cdot 3=54$ metr, har birining balandligi $H_{\text{gur}}=4,6$ metrdan va yuqori qismining kengligi $b=5$ metr).

Bu bilan bir vaqtning o'zida daryoning chap qirg'oq tomonidagi inspektorlik yo'lini ham qayta tiklashga erishiladi. Buning uchun yemirilib avariya holatidagi mavjud inspektorlik yo'lini qayta tiklanadi. Yo'lning yuzasiga 12 sm qalinlikda daryo shag'ali qoplanadi. Yo'lning uzunligi loyihadagi damba uzunligiga ya'ni L-608 metrni va kengligini b-6,0 metrni tashkil etadi.

3.5. Asosiy ko'rsatkichlari.

Dambaning uzunligi	- 608 metr
Dambaning tuproq qismining kengligi	- 6 metr
Dambaning tosh qismining kengligi	- 1,5 metr

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Namangan viloyat FVB, "Norin-Sirdaryo" ITHB, Namangan viloyati Gidrometeorologiya boshqarmasi bilan kelishilgan.
- Davlat ekologik ekspertizasining 28.04.2023 yildagi 04-01/11-08-751-sonli xulosasi.
- Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish bo'yicha 2023 yildagi texnik kengashi bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Bo'ylama qirqimda reper sathi – ko'rsatildi, geologik shurflar – o'zgartirildi, abrisda shartli belgilar – berildi.

6.1.2. Ko'ndalang qirqimlarda daryoning qirg'oqlarini dambasini xarsang tosh bilan mustahkamlash balandligi loyihaviy suv sathidan 0,7 metr – olindi.

6.1.3. Xarsang toshlar uchun zub kovlashda chuqurlik – o'zgartirildi.

6.1.4. O'zanni boshlanish qismini – o'zgartirildi.

6.1.5. Ko'ndalang qirqimlarda daryo o'zani kengligi – ko'rsatildi.

6.1.6. PK145+76 nuqtadagi shporani PK146+88 nuqtaga – ko'chirildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 2091176,348 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 117669,846 ming so'mga kamaytirilib, **1973506,502 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	1762059,377	ming so'm
QQS:	211447,125	ming so'm
- Bundan tashqari		
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	77422,000	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Norin tumani "Norinkapa" MFY hududidan oqib o'tuvchi "Qoradaryo" daryosining PK140+80 dan PK154+08 gacha bo'lgan 608 metr masofadagi o'ng qirg'oq dambasi yemirilgan va chap qirg'oqdagi eski o'zanni loyqadan tozalash" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: MAXKAMOV TOXIR MARIFJONOVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

XOJIMIRZAYEV ABDILLO XXX

Мукаммал_дизайн_Андижон_туман_MTT [Faylni ko'rish](#)